

XADICHA SULAYMONOVA YUKSAK RAHBARIK XISLATLAR EGASI

Shodmonova Munisa Erkinjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-bosqich talabasi

Har qanday ilm ilm sohibi izzat topmoqqa loyiqdir. Har qancha faxrlanishga munosibdir. Ammo fiqh ilmi va uning sohibi iftixorga hamda izzat ikromga ko'proq loyiqdir. Haqiqatda fiqh ilmi fazilati bilan boshqalardan ko'ra a'loroqdir. Bu xuddi attorning rastasida rango-rang xushbo'y atirlar bo'lsa ham, mushku anbar oldida uyalib qolgani kabidir. Qancha qushlar ham lochin kabi baland ucholmaganidek, fiqh ilmi ham, lochin yoki mushk kabi ilmlar ichida o'z salmog'i va mavqeiga egadir.

Zero, fiqh ilmi ilmlarni nafisi va nozigidir. Buning isboti tariqasida hikoyamizni Imom Zarnujiy so'zlari bilan davom ettiramiz:

Va favqa kulli zi ilmin alim!

Ahli ilm hurmatin etdi ma'lum.

Fiqh ilmi ilmlar uzra iftixor,

Sohiblari hech bo'lmaslar xor-u zor.

Bugun ana shunday yuksak faxr-iftixorga sazovor bo'lgan Xadicha opa bundan yil oldin zarnujiy aynan ular haqida aytib ketgandek jaranglaydigan ushbu so'zlar Xadicha opa kechmishini tarannum etishga bel bog'ladik

U shunday fiqh ilmining quyoshi bo'lib nur sochganki uning nurlari hanuzgacha so'nmagan.

Uning hozirgi O'zbekistonning huquq sohasidagi yorqin o'rnini qancha xotirlasak shuncha oz. U bir huquq olimi qilishi kerak bo'lgan barcha ishni, erishishi mumkin bo'lgan barcha e'tiroflarga eng brinchilardan bo'lib sazovor bo'lgan haqiqiy huquqshunos olimadir.

Garchi uning bolalik yillari og'ir zamonlarga to'g'ri kelgan, ketma-ket urushlar sodir bo'lib xalqning sillasi qurigan, insonlar ilm olish tugul non topib yeyishga qiynalgan zamonda yashagan bo'lsa ham, u o'zining metin irodasi, mehnatkashkigi, o'z sobit so'zida qat'iy tura olishi bilan har qanday to'siqni yengib o'tgan insondir.

Uning o'zbek huquqshunosligi tarixidagi tinimsiz mehnatlariga nazar tashlasak uning ko'rsatgan jasorati bugun barcha huquqshunoslarga o'rnak bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

Xadicha Sulaymonova hozirgi o'zbek qonunchiligini poydevorini yaratib ketgan, jinoyat huquqi, fuqarolik huquqi, fuqarolik protsessi va advokatura sohalarida ko'plab ilmiy ish qilgan, 80 dan ortiq maqolalar yozgan. Jinoyat huquqiga oid doktrlik dissertatsiyasi yoqlagan olimadir.

Sulaymonovaning e'lon qilingan ishlari odatda tanlangan mavzuning dolzarbligi, muhim nazariy muammolar dadil ko'tarilishi va yoritilishi, olg'a surilgan qoidaning asoslanganligi, ilmiy umumlashmalar hamda xulosalar berilishi bilan

farq qiladi. Bularning hammasi, shuningdek, ishining nihoyatda unumdorligi uning o'zbekistondagi huquqshunos olimlar orasida oldingi o'rinlardan birini egallashiga imkon berdi.

Xadicha o'z oldiga huquq fanlari sohasidan jinoyat huquqi mutaxassisi bo'lishni avvaldan maqsad qilib qo'ygan edi. Xadicha o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha insitutni tamomlagach sud organlarida ishlash va bu bilan sotsialistik qonunchilik hamda huquq tartibot ishlarini mustahkamlsh uchun kurashda eng faol ishtirok etish ishtiyoqida edi. Undagi qobiliyat, materiallarni chuqur bilish, zavq va havas uning jinoyat huquqi bo'yicha tajribali mutaxassis bo'lib yetishishidan to'la dalolat berardi.

Sulaymonova kafedra mudirligida ishlagan paytida pedagog kadrlarning o'sishiga alohida e'tibor berardi. Bunga juda esda qoladigan bir misol keltirish mumkin. 1945-yilda Xadicha Sulaymonova jinoyat huquqi kafedراسi mudirligini qabul qilib olganda uning o'zi ilmiy darajasi bo'lgan yagona muallima edi. 1956-yilga kelib, kafedra mudirligini boshqa kishiga topshirgan chog'ida fakultetdagi barcha o'qituvchilarning nomzodlik ilmiy darajasi bor di. Bulardan ko'pchiligi ilmiy darajani uning rahbarligi tufayli olishgandi. Bu va boshqa ko'pgina ishlarda haqiqiy olima hamda rahbarning oliyjanob xislatlari namoyon bo'lgan va u fakultet jamoasining chinakkam hurmatiga sazovor bo'lgandi.

Tasavvur qilib ko'ring-a! Qo'l ostidagi xodimlarning barchasi barchasi. U o'z xodimlarini o'z soxasining haqiqiy mutaxassis olimi bo'lishini qanchalik xohlaganini balki ulardan ham ko'proq istaganini ko'rishimiz mumkin. Rahbar bilimli va don obo'lsa atrofiga o'ziga o'xshaganlarni yig'adi deb bejiz aytilmagan Yusuf Xos Hojib "Qutadig'u bilig asarida."

1956-yil sentyabridan boshlab Adliya vaziri lavozimida kirishgan paytda bu sud tizimini nazorat qilish ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turish adliya vazirligi zimmasida bo'lgan. Xadicha sulaymonova ushbu tizimni takomillashtiriga, odillik va adolat bilan hamish qonun doirasida ish ko'rilishiga alohida mas'uliyat bilan e'tibor qaratadi.

Xadicha Sulaymonova xalq sudlari ishi bilan chuqur tanishib. Ularning kundalik faoliyatini tahlil qilish natijasida jinoyatchilik va huquq-tartibotni buzishga qarshi kurashning samarador bo'lishini ta'minlash sohasida ko'p ishlar qildi. U ko'p marta tekshiruv guruhlariga boshchilik qilgan, Qoraqalpog'iston ASSR, Andijon, Farg'ona, Samarqand va boshqa viloyatlarga borgan edi. Ana shu safarlarida u hech qachon qattiqqo'l nazoratchi yo'lini tutmagandi. Har qanday tekshiruv, derdi u, xalq sudlari ishini tashkil qilishga amaliy yordam berishi, sudyalarning xato va kamchiliklarini tuzatishga xizmat qilishi kerak. U sudyalardan sud jarayonini yuksak madaniy saviyada o'tkazishni, barcha protsessual normalarga qat'iy rioya qilishni, sudyalarning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish uchun barcha choralarni qo'llashni talab qilardi. Bu nafaqat o'sha davrdagi rahbar uchun balki bugun ham dolzarb bo'lib kelayotgan rahbar uchun eng muhum xislatlardan biri. Chunki har bir

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

rahbarning eng bririnchi vazifasi qo'l ostidagi xodimlarni to'g'ri yo'naltirishi, xato va kamchiliklarini qayta takrorlamaydigan qilib moxirlik bilan tsushuntirishi kerak.

Xadicha Sulaymonova xalq manfaati, el xizmati yo'lida tinib-tinchimaydigan davlat arbobi bo'lishi bilan birga ilm-fanga xizmati singgan fidoyi olim edi. Ehtimol, shuning uchun ham qismat u kishini O'zbekiston Adliya vazirligi lavozimiga loyiq ko'rgandir.

Xadicha Sulaymonova O'zbekiston SSR Oliy Sudi raisligiga tayinlangandan keyin respublikada barcha sud organlarida shikoyatlar o'z vaqtida, shikoyatda e'tibor bilan va haqqoniy hal qilinishiga ayniqsa katta ahamiyat berardi. Oliy sudda yangi tashkil etilgan shikoyatlar bo'limida fuqarolarni kunda qabul qilish tartibi joriy etilgan, sud a'zolarining qabulxonada fuqarolarni qabul qilish tartibi joriy etilgan, sud a'zolarining qabulxonada fuqarolarni qabul kuni va soatlari ham belgilab qo'yilgan edi. Bunda ham Oliy sud raisasining shaxsiy o'rnak ko'rsatishi katta ahamiyatga ega bo'lgan edi.

Haqiqiy rahbar mana shunday bo'lishi lozim. Uning har bir ishga mehr bilan mas'uliyat bilan yondashishi xalq dardini o'z dardidan ustun qo'yishi, xodimlariga nafaqat ishda balki shaxsiy hayotida ham maslahat berganini, shogirdlarini doim ilm yo'lidan borishga undaganini har qancha so'zlasak shuncha oz.

Bugun Xadicha opa har qanday rahbarga o'rnak, har qanday talabaga ustoz bo'loladiga o'z maktabini yaratib ketgan olim ayol, yuksak insoniy fazilatli rahbardir. Ezgularning nomi esa doim buyuk bo'ladi.

